

**Boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish savodxonligi darslarida
o'quvchilarning tafakkuri hamda nutqini rivojlantirish metodikasi**

Safaraliyeva Mehrangis Shamil qizi
Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori
Email: mehrangissafaraliyeva2507@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari, uning o'quvchilar tafakkuri va nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi tahlil qilinadi. Maqolada yangi darsliklarning afzalliklari va o'quvchilarning tilni puxta o'zlashtirishlariga ko'maklashuvchi pedagogik yondashuvlar ham ko'rsatib o'tilgan.

ANNOTATION

This article examines the goals and objectives of teaching "Mother Tongue and Reading Literacy" in primary education, emphasizing its role in developing students' thinking and speech abilities. It discusses the importance of interactive teaching methods, the consideration of students' age and psychological characteristics, and the advantages of new textbooks. The article highlights pedagogical approaches that enhance students' comprehension and linguistic proficiency while fostering respect for national values.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются цели и задачи преподавания предмета «Родной язык и грамотность чтения» в начальных классах, его значение в развитии мышления и речи учащихся. Анализируется необходимость применения интерактивных методов обучения, учета возрастных и психологических особенностей детей, а также преимущества новых учебников. В статье отмечаются педагогические подходы, способствующие глубокому усвоению языка и формированию национальных ценностей.

TAYANCH SO‘ZLAR: Ona tili, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta‘lim, metodika, interfaol usullar, o‘quvchi faoliyati, tafakkur, nutq o‘stirish, darslik, milliy qadriyat.

KEYWORDS: Mother tongue, reading literacy, primary education, methodology, interactive methods, student activity, thinking, speech development, textbook, national values.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Родной язык, грамотность чтения, начальное образование, методика, интерактивные методы, учебная активность, мышление, развитие речи, учебник, национальные ценности.

Ona tili har bir millatning o‘ziga xos ma’naviy boyligi, madaniyati va milliy tafakkurining ifodasidir. U xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va dunyoqarashini o‘zida mujassam etadi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur, estetik did, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu fanning asosiy maqsadi — yosh avlodni o‘z fikrini erkin, mantiqli va savodli ifodalashga o‘rgatish, ona tilimizning boy imkoniyatlarini anglash va uni qadrlashga yo‘naltirishdan iborat.

Ona tili har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili hisoblanadi. Ona tili lug‘at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an‘analarini ifodalaydigan so‘z va tushunchalardan iborat bo‘ladigan fan sanaladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshavlodlarimizning ijodiy-mustaqil, o‘z fikrini erkin, ta’sirli, mazmunli, mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli ravishda o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta‘lim tizimida yangi tahrirdagi Milliy dastur talablari asosida o‘quvchilarni ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limi sohasi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talablar standart me’zon orqali aks ettiriladi va ular quyidagilardir:

1. O‘qish va matnni anglash;
2. O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash;
3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'quvchilar ona tili va o'qish savodxonligi darslarida shu parametrlar asosida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1-2-3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi:

1. O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish;
2. O'z fikrini o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og'zaki va yozma ifodalay olish;
3. Bir ma'noni turli shakllarda bera olishko'nikmalarini shakllantirish, so'zlardan o'rinli foydalanish;
4. Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi ita'limi o'quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko'zda tutadi.

- Bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- Bolalarga atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;
- Nafosat hissini tarbiyalash;
- Mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish;
- O'quv mashg'ulotlariga, bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish.

Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur ta'lab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilishga ko'maklashish lozim.

Mazkur maqsad va vazifalarni to'laqonli bajarish uchun o'qituvchi faqat dars bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Darsdan tashqari paytlarda ham muntazam ish olib borishi yaxshi natija beradi.

Tilni o'rganishga doir kechalar, to'garaklar, maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan qo'shimcha darslar, sinfdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash kabilardan foydalanish kerak.

O'quvchilarga til ta'limini singdirishda ularning yosh va bilim darajalarini ham hisobga olish zarur. Chunki 2-sinf o'quvchisiga 4-sinf hajmdagi bilimni berilsa, o'quvchi buni hazm qila olmaydi, o'zlashtira olmaydi ham. Aksincha 4-sinf o'quvchisiga 1-2-sinfdagi bilimlar berish bilan cheklanib qolinsa, bu



ham o'quvchi uchun zerikarli bo'ladi. Natijada o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan havas, qiziqish rivojlanish o'rniga susayadi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslariga qo'yilgan talablar. Boshlang'ich sinf ona tili darslariga qo'yilgan muhim talablardan biri o'quvchilar bilimini shakllantirish borasida ularning qobiliyatlarini o'stirish ustida ishlash bilimlarni ongli bo'lishiga erishish, o'quvchilarga har bir ishni o'ylab bajarishga odatlantirishdir.

Maktabda amaliy ishlarning ahamiyati o'quvchilar tomonidan to'g'ri baholansada, o'quvchilarning nazariy bilimlaridan amalda foydalanishga qiynaladilar. Yozma ishlarni bajarishda grammatika qoidalaridan kam foydalanadilar. Aslida esa imlo savodxonlikni oshirish uchun ko'chirib yozish va amaliy mashqlar muhim o'rin tutadi.

Psixologik tadqiqodlardan ma'lum bo'lishicha, imlo savodxonlik asta-sekinlik bilan shakllanadi. Amaliy ishlardan qoidaga o'tishda ham o'zlashtirish jarayoni sekinlik bilan kechadi. Dastlab o'qituvchi rahbarligida og'zaki muhokama qilinadi. Asta-sekin o'quvchilar o'ylab, mulohaza qilib anglay boshlaydilar. Barcha yozuv darslarida o'quvchilarga to'g'ri yozish qoidalarini ta'kidlab turish va amaliy ishlarni bajarish orqali ularning imlo savodxonliklarini oshirish mumkin.

Barcha ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin o'tilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda oldin o'tilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar.

Ilg'or tajribali o'qituvchilar darslarni tashkil etishda oldin o'tilganlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda keyingi darsda o'rganiladigan mavzu uchun zamin tayyorlaydilar.

Hozirgi zamon darsi shundan iboratki, o'quvchi, tinglovchi, o'qituvchi esa ma'ruzachi bo'lib qolmasligi kerak. Balki o'qituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissyorga aylanmog'i lozim. O'qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki hamma o'quvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, o'z fikrini ayta olsin, kamchiligi bo'lsa o'rtoqlari va o'qituvchi javobidan kelib chiqib to'g'rilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda bo'lishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi.



1-3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslari bilan tanishtirish va ularning bir-biridan farqi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darsligining adabiy til meyorida amaliy o'zlashtirishlarga yordam berishdir. Darslikning asosiy qismini xilma-xil mashqlar tashkil etadi. Mashqlarda uyga vazifa va o'ylab ko'rish uchun berilgan mashqlarga alohida belgi qo'yilgani juda ma'qul. Ayniqsa kitobning sahifalari did bilan jihozlangan. Berilgan rasmlar aniq, chiroyli qilib chizilgan. Qoidalar aniq, tushunarli qilib chiziqlar ichida berilgan. Darslik oxirida lug'at berilgan bo'lib jarangli va jarrangsiz undoshlar aniq ajratib ko'rsatilgan. Darslik foydalanishga loyiq.

Umuman yangi darslik eski darslikdan birmuncha mukammal ishlangan. 1-2-3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari turli xil katta bo'limlarini o'z ichiga olgan bo'lib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, bilish faolligini oshirishga qaratilgan. Bu darsliklarda ijtimoiy mavzular yoritilgan bo'lib, har bir mavzuda o'rganilishi zarur bo'lgan reja-mavzular berilgan. Yangi darslikdagi so'z turkumlari bo'limida berilgan mashqlar, eski darslikdagi mashqlardan tubdan farq qiladi yangi darslikda qoida va mashqlar deyarli yo'q va bu o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun juda qulay.

Umuman yangi to'ldirilgan nashrlar o'quvchilarning ona tili fanidan puxta bilim olishlarida katta ahamiyatga ega.

Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayoni nafaqat til qoidalarini o'rgatish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, estetik zavq va axloqiy qarashlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslar zamonaviy interfaol metodlar asosida tashkil etilganda, o'quvchilarning bilimga qiziqishi va nutqiy faoliyati sezilarli darajada ortadi. Shuningdek, yangi darsliklarning mazmunan boyitilishi va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi ta'lim samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, ona tili ta'limi milliy qadriyatlarni singdiruvchi, tafakkurni yuksaltiruvchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti (DTS). – Toshkent: 2021
2. Vygotskiy L.S. “Pedagogik psixologiya” – Moskva, 1996.
3. Jalolov J. “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” – Toshkent, 2020.
4. Xolmatova M. “Boshlang'ich sinflarda matn bilan ishlash metodikasi” – Toshkent, 2018.



5. Usmonov, J. Muxatasar grammatika 1-qism (rangli). Toshkent: Hodiye Education, 2024.
6. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2024-yil, 9-son.
7. “Zamonaviy tilshunoslik muammolari” (o‘quv-uslubiy qo‘llanma), 2024.
8. Hamroyev, M.; Muhamedova, D.; Shodmonqulova, D. Ona tili (kurs darsligi). Toshkent: TDPU Press, 2024.
9. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqini fonetik rivojlantirish” (Zenodo Archive), 2024.
10. CliffsNotes: Malaka Test 2024 (o‘quv-uslubiy konspekt).
11. TDPU e-library: 2-sinf Ona tili 1-qism va 2-qism, 2023–2024.
12. Pedagog.uz: “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tilida yozma kompetensiyasini rivojlantirish”, 2024.
13. Dewey J. “Experience and Education” – New York: Macmillan, 1938.
14. Freire P. “Pedagogy of the Oppressed” – London, 1970.